OSIYO TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
KENGASHINING 2-SON YIG‘ILISH BAYONNOMASIDAN
KO’CHIRMA

2026-yil 29-sentabr **Qarshi shahri**

Kengash a’zolari-21 nafar
Qatnashdilar - 21 nafar

KUN TARTIBI

5.5-masala. “Sayqal” ilmiy-amaliy elektron jurnalini ta’sis etish, uning Nizomi va tahrir hay’ati tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig’i O’Abdullayev so‘zga chiqib, oliy ta’lim muassasasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar hamda yosh tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijalarini keng ilmiy jamoatchilikka yetkazish, ilmiy maqolalar almashinuvini yo‘lga qo‘yish va ilmiy-amaliy tadqiqotlarni ommalashtirish maqsadida **“Sayqal”** ilmiy-amaliy elektron jurnalini ta’sis etish zarurligini ta’kidladi.

Shuningdek, jurnal orqali ta’lim, fan, texnika, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot, ijtimoiy-gumanitar fanlar va boshqa ilmiy yo‘nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlar natijalarini nashr etish, ilmiy maqolalarning sifatini oshirish, ilmiy muloqot va tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirish ko‘zda tutilgani qayd etildi.

Jurnal faoliyatini belgilangan tartibda tashkil etish maqsadida uning Nizomi ishlab chiqilgani, unda jurnalning maqsad va vazifalari, faoliyat yo‘nalishlari, maqolalarni qabul qilish va nashrga tayyorlash tartibi, mualliflar hamda tahrir hay’ati a’zolarining huquq va majburiyatlari belgilanganligi haqida ma’lumot berildi.

Shu bilan birga, jurnalning ilmiy-uslubiy faoliyatini tashkil etish, kelib tushgan maqolalarni ko‘rib chiqish, tahrir qilish, taqrizdan o‘tkazish va nashrga tavsiya etish vazifalarini amalga oshirish uchun tahrir hay’ati tarkibini shakllantirish taklif etildi.

SO‘ZGA CHIQDILAR:

E.Ibragimov: Ilmiy kengash a’zolari jurnalni tashkil etish tashabbusini qo‘llab-quvvatlab, uning ilmiy-amaliy ahamiyati, professor-o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning ilmiy faolligini oshirishdagi o‘rni haqida fikr bildirib o’tdi.

Muhokamalar davomida jurnal faoliyatini zamonaviy elektron nashriyot talablari asosida yo‘lga qo‘yish, maqolalarni ilmiy ekspertizadan o‘tkazish, nashr etilayotgan materiallarning ilmiy saviyasi va sifatini ta’minlash hamda jurnalning elektron platformasini tashkil etish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig’i O’Abdullayevning universitet qoshida ilmiy-amaliy elektron jurnal ta’sis etish to‘g‘risidagi axborotini tinglab, Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy kengashi

QAROR QILADI:

1. Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig’i O’Abdullayevning ma’lumoti axborot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy axborot va

kommunikatsiyalar sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatishning ayrim ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 19-dekabrdagi 1017-son qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, doktorantlar va magistrantlarning ilmiy-tadqiqot natijalarini keng ilmiy jamoatchilikka yetkazish maqsadida Osiyo texnologiyalar universiteti qoshida «Sayqal» ilmiy-amaliy elektron jurnali ta’sis etilsin va uning faoliyati yo‘lga qo‘yilsin.

3. **“Sayqal”** ilmiy-amaliy elektron jurnalining Nizomi **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. **“Sayqal”** ilmiy-amaliy elektron jurnali tahrir hay’atining tarkibi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig’i O’Abdullayev hamda jurnal bosh muharririga:

bir oy muddatda “Sayqal” ilmiy-amaliy elektron jurnalida maqolalarni qabul qilish, taqrizdan o‘tkazish va chop etish tartibini ishlab chiqish, jurnalga kelib tushgan maqolalarni ko‘rib chiqish bo‘yicha taqrizchilar (ekspertlar) tarkibini shakllantirish;

bir oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligidan ro‘yxatdan o‘tkazish uchun belgilangan hujjatlarni rasmiylashtirgan holda taqdim etish;

jurnalning rasmiy veb-sayti (https://sayqal.asianuniversity.uz) uzluksiz ishlashini, maqolalarni veb-sayt orqali onlayn qabul qilish tizimining faoliyatini hamda xosting xizmatlari bo‘yicha shartnomalarning o‘z vaqtida rasmiylashtirilishini ta’minlash;

jurnalning xalqaro standart seriya raqami asosida nashr etilishini, maqolalarga Crossref tizimi orqali DOI raqamlari berilishini ta’minlash hamda jurnalni Google Scholar va boshqa xalqaro ilmiy bazalar va indekslash tizimlariga kiritish choralarini ko‘rish;

jurnal veb-saytining har bir sahifasi va har bir sonining sifatli hamda o‘z vaqtida Internet tarmog‘iga joylashtirilishini doimiy nazorat qilish vazifalari yuklansin.

6. Belgilab qo‘yilsinki, Osiyo texnologiyalar universitetining Bosh rektori o‘z lavozimiga ko‘ra jurnal **Tahrir hay’ati raisi** hisoblanadi.

7. Jurnal **Bosh muharriri** etib Ijrochi rector E.Ibragimov tayinlansin.

8. Jurnal **Bosh muharriri o‘rinbosari** etib Akademik ishlar bo’yicha prorektor A.To’qliyev tayinlansin.

9. A.Ernazarov jurnalning **mas’ul kotibi** etib tasdiqlansin hamda maqolalarni qabul qilish va ro‘yxatga olish, mualliflar va taqrizchilar bilan yozishmalarni olib borish, jurnal sonlarini https://sayqal.asianuniversity.uz veb-saytiga joylashtirish va jurnal arxivini yuritish ishlari uning zimmasiga yuklansin.

10. Belgilab qo‘yilsinki, jurnal alohida yuridik shaxs maqomiga va alohida hisob raqamiga ega bo‘lmaydi, uning barcha moliyaviy hisob-kitoblari, moddiy-texnik ta’minoti, tahririyat faoliyati va jurnalni Internet tarmog‘ida nashr etish bilan bog‘liq xarajatlar universitet mablag‘lari hamda jurnal faoliyatidan tushgan tushumlar hisobidan universitet buxgalteriyasi orqali amalga oshiriladi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Akademik ishlar bo’yicha prorektor A.To’qliyev zimmasiga yuklansin.

Universitet kengashi raisi: **E.Ibragimov**

Kengash kotibi: **A.Ernazarov**

1-ilova
Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy kengashining
2026-yil “29” sentabrdagi 2-son qaroriga

«SAYQAL» ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNALI TO‘G‘RISIDA

NIZOM

Qarshi – 2026

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Nizom «Sayqal» ilmiy-amaliy elektron jurnali (keyingi o‘rinlarda «Jurnal» deb ataladi) va uning tahririyati (keyingi o‘rinlarda «Tahririyat» deb ataladi) faoliyatining tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy va ilmiy asoslarini belgilaydi.

1.2. Jurnal taqrizlanadigan, ochiq kirishli ilmiy-amaliy elektron nashr bo‘lib, yiliga 6 marta – mart, iyun, sentabr va dekabr oylarida o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi hamda Jurnalning rasmiy veb-saytiga (https://sayqal.asianuniversity.uz) joylashtiriladi. Jurnalning davriyligiga keyinchalik amaldagi tartib-qoidalarga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin. Jurnal Internet tarmog‘i orqali respublika va xalqaro miqyosda tarqatiladi.

1.3. Jurnalda chop etiladigan bitta maqolaning hajmi adabiyotlar ro‘yxati bilan birga 8–16 betni tashkil etadi (Microsoft Word .docx formati, Times New Roman, 12 shrift, 1,5 interval, barcha hoshiyalar 2 sm). Maqola IMRAD tuzilmasida (kirish, metodlar, natijalar, muhokama, xulosa) yoziladi; sarlavha 15 so‘zdan, mualliflar soni 5 nafardan oshmasligi, adabiyotlar ro‘yxati APA 7 standartida, kamida 15 manbadan iborat bo‘lishi talab etiladi. Maqolalarni rasmiylashtirishning batafsil talablari va namunalar (shablonlar) Jurnal veb-saytining «Yo‘riqnoma» bo‘limida e’lon qilinadi.

1.4. Osiyo texnologiyalar universiteti (keyingi o‘rinlarda «Universitet» deb ataladi) Jurnalning muassisi (keyingi o‘rinlarda «Muassis» deb ataladi) hisoblanadi.

1.5. Tahririyat o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida», «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida», «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida», «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida»gi qonunlari, amaldagi boshqa qonun hujjatlari, Universitet Ustavi hamda mazkur Nizomga amal qiladi.

1.6. Tahririyat va Muassisning o‘zaro munosabatlari mazkur Nizom va ular o‘rtasida tuzilgan kelishuv asosida yo‘lga qo‘yiladi.

1.7. Tahririyat o‘z blankasiga va Jurnal logotipiga (emblemasiga) ega bo‘ladi.

1.8. Tahririyat mustaqil yuridik shaxs maqomiga ega emas va Universitet balansida faoliyat yuritadi.

1.9. Tahririyatning joylashgan manzili: Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Jayhun ko‘chasi, 17-B uy. Tel.: +998 55 404 11 66. E-mail: info@sayqal.uz. Veb-sayt: https://sayqal.asianuniversity.uz.

II. JURNAL FAOLIYATINING MAQSADI, ASOSIY VAZIFALARI VA YO‘NALISHLARI

2.1. Jurnalning missiyasi – mintaqa olimlarining tadqiqotlarini xalqaro ilmiy hamjamiyat uchun ochiq, tekshiriladigan va iqtibos keltiriladigan qilish. Jurnalning maqsadi – yosh tadqiqotchilar uchun sifatli taqriz madaniyatini shakllantirish, respublika va xorijiy olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar va magistrantlarning ilmiy-tadqiqot natijalarini keng ilmiy jamoatchilikka yetkazish hamda Jurnalni xalqaro indekslash bazalariga kiritishdan iborat. Jurnal shiori: «Tadqiqot. Innovatsiya. Bilim.»

2.2. Jurnalning asosiy vazifalari:

– ta’lim, ilm-fan va innovatsiyalar bo‘yicha dolzarb ilmiy muammolarni yoritish;

– ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini, ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalashtirish;

– yosh olimlar, doktorantlar, magistrantlar va iqtidorli talabalarning ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;

– ta’lim tizimidagi islohotlar, yangiliklar va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini targ‘ib qilish;

– milliy va xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan hamkorlikni rivojlantirish;

– ilmiy nashr etikasi va akademik halollik madaniyatini qaror toptirish.

2.3. Jurnalning asosiy ilmiy yo‘nalishlari (rukn)lari:

– iqtisodiyot fanlari (moliya va bank ishi, korporativ boshqaruv, raqamli iqtisodiyot, mintaqaviy iqtisodiyot);

– pedagogika fanlari;

– psixologiya fanlari;

– texnika fanlari;

– axborot texnologiyalari;

– filologiya fanlari;

– tarix fanlari;

– falsafa fanlari.

Ilmiy yo‘nalishlar ro‘yxati Tahrir hay’atining qaroriga asosan kengaytirilishi yoki o‘zgartirilishi mumkin.

2.4. Jurnal quyidagi turdagi materiallarni qabul qiladi va e’lon qiladi:

– ilmiy-tadqiqot natijalari aks etgan original (avval e’lon qilinmagan) maqolalar;

– nazariy va ilmiy-amaliy maqolalar;

– sharh (obzor) maqolalar va taqrizlar;

– ilmiy konferensiyalar, seminarlar va ilmiy hayotga oid axborot materiallari.

2.5. Jurnalga taqdim etilgan barcha maqolalar ilmiy nashr standartlari va nashr etikasi talablari asosida baholanadi hamda kamida ikki nafar mustaqil mutaxassis tomonidan ikki tomonlama yopiq taqrizdan (double-blind peer review) o‘tkaziladi.

2.6. Tahririyat Jurnal sonlarining belgilangan tartibda va o‘z vaqtida chiqarilishini ta’minlaydi.

III. MUASSISNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Muassis quyidagi huquqlarga ega:

– Jurnalning ro‘yxatdan o‘tgan nomidan foydalanish va uning faoliyatini tashkil etishda ishtirok etish;

– ta’sis hujjatlari va amaldagi qonunchilik asosida Tahririyat boshqaruvini shakllantirishda qatnashish;

– daromadlarni taqsimlash va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplashda ishtirok etish;

– belgilangan tartib va hajm doirasida reklama xarakteriga ega bo‘lmagan materiallarni o‘z nomidan bepul joylashtirish;

– Tahririyat faoliyati tugatilgan taqdirda barcha hisob-kitoblar amalga oshirilgandan so‘ng qolgan mol-mulkni yoki uning qiymatini belgilangan tartibda olish;

– amaldagi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlar.

3.2. Muassis quyidagi majburiyatlarni oladi:

– Jurnal faoliyatini amaldagi qonunchilik va belgilangan tartib asosida tashkil etish;

– Tahririyatni zarur binolar, jihozlar, kompyuter texnikasi va aloqa vositalari bilan ta’minlash;

– Tahririyat faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish uchun tashkiliy va moliyaviy shart-sharoit yaratish;

– Jurnalning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlash;

– agar Muassisning ustav fondida chet el investitsiyalari ulushi «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan chegaradan ortib ketsa, bu haqda vakolatli davlat organini xabardor etish.

3.3. Muassisning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

IV. TAHRIRIYATNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Tahririyat Jurnal yo‘nalishiga mos ravishda axborot izlash, olish va tarqatish, turli tashkilot va muassasalarga murojaat qilish huquqiga ega. Qonun bilan muhofaza qilinadigan ma’lumotlardan tashqari hujjat va materiallardan foydalanish hamda ularni qayd etish imkoniyatiga ega.

4.2. Tahririyat e’lon qilinadigan materiallarni tekshiradi, zarur hollarda mutaxassislarni taqrizchi sifatida jalb qiladi, materiallarni tahrir qiladi yoki talabga javob bermaydigan materiallarni e’lon qilmaslik huquqiga ega.

4.3. Hech kim Tahririyatni taqdim etilgan materiallarni majburan chop etishga majburlashga haqli emas.

4.4. Jurnalning chiqarilish davriyligi va xizmatlar narxi Muassis bilan kelishilgan holda belgilanadi. Jurnalning har bir soni Bosh muharrir ruxsati bilan nashr etiladi.

4.5. Tahririyat o‘z faoliyatiga zid bo‘lmagan shartnomalarni tuzadi, ilmiy-metodik maslahat xizmatlarini ko‘rsatadi, maxsus sonlar va ilmiy konferensiya materiallarini e’lon qilishi mumkin.

4.6. Tahririyat amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlardan ham foydalanishi mumkin.

4.7. Tahririyat quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

– «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga qat’iy rioya etish;

– e’lon qilinayotgan materiallarning ilmiy saviyasi, ishonchliligi va sifatini ta’minlash;

– mualliflik huquqlariga rioya qilish;

– taqdim etilgan maqolalarni belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqish va e’lon qilish;

– mualliflar, taqrizchilar va o‘quvchilar bilan ochiq va shaffof hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

– chop etilgan axborotning to‘liqligi va haqqoniyligi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish;

– Muassis tomonidan foydalanish uchun berilgan jihozlar, kompyuter texnikasi va boshqa mol-mulk butligini ta’minlash.

4.8. Jurnaldan:

– O‘zbekiston Respublikasining amaldagi konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga da’vat etish;

– urush, zo‘ravonlik va terrorizmni, shuningdek, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalarini targ‘ib etish;

– milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atuvchi axborotlarni tarqatish;

– giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni targ‘ib qilish;

– fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularning shaxsiy hayotiga aralashish;

– jinoiy va o‘zga javobgarlikka sabab bo‘ladigan boshqa xatti-harakatlarni sodir etish maqsadida foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.9. Tahririyat qonuniy kuchga kirgan va ayni shu Jurnalda e’lon qilish to‘g‘risida ko‘rsatma berilgan sud qarorini ko‘rsatilgan muddatda e’lon qiladi.

4.10. Boshqa har qanday axborot va e’lonlar Tahririyat bilan tuzilgan shartnoma asosida e’lon qilinadi.

V. TAHRIRIYATNING BOSHQARUV ORGANLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH TARTIBI

5.1. Jurnalning boshqaruv organlari – Tahrir hay’ati, Bosh muharrir va Tahririyat jamoasining umumiy yig‘ilishidan iborat.

5.2. Universitet ijrochi rektori o‘z lavozimiga ko‘ra Tahrir hay’ati raisi hisoblanadi. Tahrir hay’ati raisi:

– Tahririyat va Tahrir hay’ati faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;

– Tahririyatning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur sharoitlar yaratish choralarini ko‘radi;

– Tahririyat xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, ularni rag‘batlantirish yoki intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq hal etadi;

– Tahririyatning shtatlar jadvalini, ichki mehnat tartibi qoidalarini, xodimlarning lavozim yo‘riqnomalarini tasdiqlaydi;

– davlat va jamoat tashkilotlari bilan munosabatlarda Jurnal nomidan ish olib boradi, Tahririyat nomidan shartnomalar tuzadi;

– Jurnalning yillik ish rejasini tasdiqlaydi va uning ijrosini nazorat qiladi.

5.3. Bosh muharrir Universitet ijrochi rektorining buyrug‘i bilan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Bosh muharrir:

– Jurnal faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi va uning «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi Qonun hamda mazkur Nizom talablariga muvofiqligi uchun mas’ul hisoblanadi;

– Jurnal sonlarini shakllantiradi va har bir sonni nashrga imzolaydi;

– maqolalarni qabul qilish, taqrizga yuborish, qabul qilish yoki rad etish to‘g‘risida yakuniy qaror qabul qiladi;

– taqrizchilar tarkibini shakllantiradi va ularning ishini muvofiqlashtiradi;

– Jurnalning o‘z vaqtida nashrga tayyorlanishi, unda chop etilgan materiallarning ilmiy saviyasi va haqqoniyligi uchun mas’ul hisoblanadi;

– Tahrir hay’ati yig‘ilishlarini chaqiradi va ularda raislik qiladi (rais bo‘lmagan taqdirda).

5.4. Bosh muharrir o‘z vakolatlarining bir qismini Bosh muharrir o‘rinbosari yoki mas’ul kotibga yuklashi va ijroni o‘z nazoratida qoldirishi mumkin.

5.5. Bosh muharrir ilmiy mazmun va nashr qarorlari bo‘yicha mustaqil hisoblanadi. Maqolalarni qabul qilish, taqrizdan o‘tkazish yoki rad etish to‘g‘risidagi qarorlar faqat ilmiy mezonlar asosida qabul qilinadi.

5.6. Mas’ul kotib maqolalarni qabul qilish va ro‘yxatga olish, mualliflar va taqrizchilar bilan yozishmalarni olib borish, Jurnal sonlarini sahifalash va veb-saytga joylashtirish, Jurnal arxivini yuritish ishlarini tashkil etadi.

5.7. Tahrir hay’ati Tahririyatni boshqarishda maslahat maqomiga ega bo‘lgan jamoaviy organ bo‘lib, uning tarkibi Universitet Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tahrir hay’ati:

– Jurnalning ilmiy siyosati va ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi;

– Jurnal sonlari rejasini va nashrga tavsiya etilgan maqolalarni muhokama qiladi;

– mazkur Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar beradi;

– Jurnalni xalqaro ilmiy bazalarga kiritish va uning nufuzini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi.

5.8. Tahrir hay’ati yig‘ilishlari zaruratga qarab, biroq har bir son chiqishidan oldin kamida bir marta o‘tkaziladi. Yig‘ilish qarorlari ochiq ovoz berish orqali ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va maslahat xarakteriga ega bo‘ladi.

5.9. Tahririyat jamoasining umumiy yig‘ilishi Tahririyatning yillik xarajatlar va daromadlar smetasini muhokama qiladi, xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash va rag‘batlantirish bo‘yicha Muassisga takliflar kiritadi, Bosh muharrir va Tahrir hay’ati a’zolari o‘rtasida yuzaga kelgan bahsli masalalarni ko‘rib chiqadi. Umumiy yig‘ilish qarorlari ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

VI. MAQOLALARNI QABUL QILISH, TAQRIZLASH VA NASHR ETISH TARTIBI

6.1. Maqolalar Jurnal veb-saytining «Maqola yuborish» bo‘limi (https://sayqal.asianuniversity.uz/maqola-yuborish) orqali elektron shaklda qabul qilinadi. Taqrizga yuboriladigan nusxada muallif(lar) haqidagi ma’lumotlar bo‘lmasligi kerak.

6.1.1. Maqolani ko‘rib chiqish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: maqolani yuborish; dastlabki tekshiruv (rasmiylashtirish, mavzuga moslik, o‘xshashlik darajasi); tahririyat ko‘rigi; taqriz; muallif tomonidan tuzatish kiritish (taqrizchilar fikrlariga javob xati bilan); yakuniy qaror; nashr.

6.2. Kelib tushgan maqola mas’ul kotib tomonidan ro‘yxatga olinadi va rasmiylashtirish talablariga muvofiqligi tekshiriladi. Talablarga javob bermaydigan maqolalar taqrizga yuborilmasdan muallifga qaytariladi.

6.3. Barcha maqolalar maxsus dasturiy vositalar yordamida plagiatga (antiplagiat) tekshiriladi. Maqolaning boshqa manbalar bilan o‘xshashlik darajasi 20 foizdan oshmasligi (originallik darajasi kamida 80 foiz bo‘lishi) talab etiladi.

6.4. Talablarga javob bergan maqola ikki tomonlama yopiq (double-blind) taqrizga yuboriladi: taqrizchi muallifni, muallif esa taqrizchini bilmaydi. Har bir maqola kamida ikki nafar mustaqil mutaxassis tomonidan taqrizdan o‘tkaziladi.

6.5. Taqrizchi taqriz natijasi bo‘yicha quyidagi xulosalardan birini beradi: «nashrga tavsiya etiladi», «tuzatishlar kiritilgandan so‘ng nashrga tavsiya etiladi», «qayta taqriz talab etiladi» yoki «nashrga tavsiya etilmaydi».

6.6. Taqriz natijalari asosida maqolani nashr etish to‘g‘risidagi yakuniy qaror Bosh muharrir tomonidan qabul qilinadi va muallifga yozma ravishda (elektron shaklda) ma’lum qilinadi.

6.6.1. Maqola bo‘yicha dastlabki qaror odatda 4–6 hafta ichida, yakuniy qaror esa maqola yuborilgan kundan boshlab o‘rtacha 6–8 hafta ichida qabul qilinadi. Muallif taqrizchilar ko‘rsatgan tuzatishlarni 2 hafta ichida kiritadi.

6.7. Nashr etilgan har bir maqolaga Jurnal sonining nomeri, sahifalari va Crossref tizimi orqali DOI raqami beriladi hamda maqola Jurnal veb-saytida ochiq holda joylashtiriladi.

VII. TAHRIRIYATNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI VA MOLIYAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATI

7.1. Tahririyatning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati Muassis doirasida, Universitet buxgalteriyasi orqali amalga oshiriladi. Jurnalning ustav fondi 5 000 000 (besh million) so‘m miqdorida belgilanadi.

7.2. Muassisning ustav fondidagi ulushi doimiy bo‘lib, moliyalashtirish jarayonida muassislarning moliyaviy ishtiroki o‘zgargan taqdirda Tahririyat Jurnalni ro‘yxatga olgan organni yozma ravishda xabardor etadi.

7.3. Tahririyat faoliyatini moliyalashtirish manbalari quyidagilardan iborat:

– Muassis tomonidan ajratiladigan mablag‘lar;

– ilmiy maqolalarni nashr etish va boshqa xizmatlar ko‘rsatishdan tushadigan daromadlar;

– reklama va e’lonlardan tushadigan daromadlar;

– homiylik va xayriya mablag‘lari, grantlar;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

7.4. Moliyaviy manbalar Jurnalning ilmiy mustaqilligiga ta’sir ko‘rsatmasligi shart. Homiylik, reklama yoki boshqa moliyaviy qo‘llab-quvvatlash Tahririyatning ilmiy qarorlariga aralashishga asos bo‘lmaydi.

7.5. Jurnalda maqola chop etish, reklama va boshqa xizmatlar narxlari Muassis bilan kelishilgan holda Tahrir hay’ati tomonidan belgilanadi va o‘zgartiriladi.

7.6. Tahririyat xodimlarining ish haqi, taqrizchilar va mualliflarning qalam haqi (gonorar) miqdorlari, mukofot fondlari amaldagi qonunchilikka rioya etilgan holda Muassis bilan kelishilgan holda belgilanadi.

VIII. FOYDANI TAQSIMLASH VA ZARARNI QOPLASH TARTIBI

8.1. Muassis har chorak, yarim yil va moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha Tahririyat moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining natijalarini chiqaradi hamda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va majburiy to‘lovlarni amalga oshiradi.

8.2. Soliqlar va barcha majburiy to‘lovlar to‘langanidan so‘ng qolgan mablag‘lar sof foydani tashkil etadi.

8.3. Sof foydaning 5 foizi zahira fondini shakllantirishga, 15 foizi Jurnal faoliyatini rivojlantirishga (dasturiy ta’minot, texnik vositalar, xalqaro bazalarga a’zolik va boshqalar) yo‘naltiriladi. Qolgan qismi xodimlar, taqrizchilar va mualliflarni rag‘batlantirish hamda Universitetning ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadlarida ishlatiladi.

8.4. Tahririyat moliyaviy yilni zarar bilan yakunlagan taqdirda, zarar zahira fondi hisobidan, u yetmagan holda esa Muassis hisobidan qoplanadi.

8.5. Foydani taqsimlash va zararni qoplash tartibi Muassis qaroriga asosan amalga oshiriladi.

IX. TAHRIRIYAT BILAN XODIMLAR O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR

9.1. Tahririyat tarkibi Bosh muharrir, uning o‘rinbosari, mas’ul kotib, rukn muharrirlari, adabiy muharrir (musahhih), texnik muharrir (sahifalovchi-dizayner), veb-

sayt administratori va tarjimonlardan iborat bo‘lishi mumkin. Tahririyat lavozimlari Universitet xodimlari tomonidan o‘rindoshlik asosida ham bajarilishi mumkin.

9.2. Tahririyat jamoasidagi mehnat munosabatlari qonun hujjatlari, mazkur Nizom, Universitetning ichki mehnat tartibi qoidalari va lavozim yo‘riqnomalari bilan tartibga solinadi.

9.3. Mazkur Nizom talablari barcha Tahririyat xodimlari uchun majburiydir.

X. UCHINCHI SHAXSLAR BILAN O‘ZARO MUNOSABATLAR

10.1. Muassis Jurnalning ro‘yxatdan o‘tgan nomidan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, bu nomdan boshqa shaxslarning foydalanishini taqiqlash bo‘yicha mutlaq huquqqa ega. Muassis mazkur huquqni uchinchi shaxsga o‘tkazgan taqdirda bu haqda ro‘yxatga oluvchi organni xabardor qiladi; mutlaq huquq Jurnal qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan boshlab o‘tgan hisoblanadi.

10.2. Muassis tarkibining majburan o‘zgartirilishiga hamda Muassis huquq va majburiyatlarining majburan uchinchi shaxsga o‘tkazilishiga faqat sud qarori bilan yo‘l qo‘yiladi.

10.3. Tahririyat boshqa ilmiy jurnallar, oliy ta’lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, xalqaro ilmiy bazalar va indekslash tizimlari bilan amaldagi qonunchilikka muvofiq hamkorlik shartnomalari tuzishi mumkin.

10.4. Muassis va Tahririyatning uchinchi shaxslar bilan munosabatlarida yuzaga keladigan nizolar tomonlarning o‘zaro kelishuvi yoki sud tartibida hal etiladi.

XI. JURNAL CHIQARILISHINI TO‘XTATIB TURISH VA TUGATISH TARTIBI

11.1. Jurnal chiqarilishini to‘xtatib turish yoki tugatish Muassisning qarori bilan yoki ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning arizasiga ko‘ra sud qarori asosida amalga oshiriladi.

11.2. Muassis Jurnal chiqarilishini to‘xtatib turish yoki tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilganidan keyin uch kun ichida bu haqda ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organni yozma shaklda, shu jumladan axborot tizimi orqali elektron shaklda xabardor etishi shart.

11.3. Jurnal chiqarilishini sud qarori bilan tugatishga quyidagilar asos bo‘lishi mumkin:

– ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablarining Tahririyat tomonidan muntazam ravishda buzilganligi va bu haqda ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ tomonidan yozma ogohlantirishlar berilganligi;

– sudning Jurnal chiqarilishini to‘xtatib turish haqidagi qarori bajarilmaganligi;

– Jurnalning olti oydan ortiq muddat mobaynida chiqarilmaganligi;

– qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollar.

11.4. Jurnal chiqarilishining tugatilishi uning ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishi tugatilishiga sabab bo‘ladi.

11.5. Tahririyat faoliyati tugatilgan taqdirda Muassis tomonidan tuzilgan tugatish komissiyasi barcha tugatish ishlarini amalga oshiradi. Tahririyatni qayta tashkil etish Muassis qarori yoki sud qarori bilan amalga oshiriladi.

XII. NASHR ETIKASI VA AKADEMIK HALOLLIK TAMOYILLARI

12.1. Jurnal nashr faoliyatida xalqaro akademik halollik standartlariga, jumladan, COPE (Committee on Publication Ethics) tamoyillariga amal qiladi.

12.2. Tahririyat, mualliflar va taqrizchilar quyidagi etik talablarga rioya etishlari shart:

– plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish, natijalarni buzib ko‘rsatish va boshqa akademik nohalol harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik;

– maqolalarni original ilmiy tadqiqot natijalari asosida tayyorlash, bir maqolani bir vaqtda bir necha nashrga taqdim etmaslik;

– mualliflik huquqlarini hurmat qilish va foydalanilgan manbalarga to‘g‘ri havola berish;

– manfaatlar to‘qnashuvi (conflict of interest) mavjud bo‘lsa, bu haqda oldindan ma’lum qilish;

– generativ sun’iy intellekt vositalaridan foydalanilgan bo‘lsa, bu haqda maqolaning «Metodlar» yoki «Minnatdorchilik» qismida ko‘rsatish (sun’iy intellekt muallif sifatida ko‘rsatilmaydi).

12.3. Nashr etilgan maqolada jiddiy xatolar, etik me’yorlar buzilishi yoki plagiat aniqlangan taqdirda Tahririyat maqolani qaytarib olish (retraction) yoki tuzatish (correction) to‘g‘risida qaror qabul qiladi va bu haqda Jurnal veb-saytida e’lon qiladi.

12.4. Tahririyat maqolalarni muallifning millati, jinsi, diniy qarashlari, lavozimi yoki institutsional mansubligidan qat’i nazar xolis baholaydi.

XIII. ILMIY MUSTAQILLIK VA TAHRIR SIYOSATI

13.1. Jurnalda maqolalarni qabul qilish, taqrizdan o‘tkazish va nashr etish bo‘yicha qarorlar faqat ilmiy mezonlar asosida qabul qilinadi.

13.2. Muassis, homiylar yoki boshqa manfaatdor tomonlar Tahririyatning ilmiy qarorlariga bevosita aralashish huquqiga ega emas.

13.3. Muassis Jurnalning tashkiliy va moliyaviy faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi, biroq ilmiy mazmun, taqriz jarayoni va nashr siyosati bo‘yicha qarorlar Tahririyat vakolatiga kiradi (editorial independence tamoyili).

XIV. OCHIQ KIRISH (OPEN ACCESS) VA RAQAMLI NASHR SIYOSATI

14.1. Jurnal ochiq kirish (Open Access) tamoyillari asosida faoliyat yuritadi va maqolalardan Internet tarmog‘ida bepul va erkin foydalanish imkonini yaratadi.

14.2. Maqolalar Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) xalqaro litsenziyasi asosida tarqatiladi. Mualliflik huquqi muallif(lar)da saqlanib qoladi, Jurnal esa maqolani birinchi bo‘lib nashr etish huquqini oladi; maqoladan muallifga havola qilingan holda qayta foydalanishga ruxsat etiladi.

14.3. Tahririyat Jurnal materiallarining elektron arxivini yuritadi, ularning uzoq muddat saqlanishini ta’minlaydi va Jurnalning Google Scholar tizimida indekslanishini ta’minlaydi, maqolalarga Crossref orqali DOI beradi hamda Jurnalni boshqa xalqaro ilmiy bazalar va indekslash tizimlariga kiritish choralarini ko‘radi.

XV. TAHRIR HAY’ATI VA TAQRIZCHILAR SIYOSATI

15.1. Tahrir hay’atiga Universitet, boshqa mahalliy va xorijiy oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarning ilmiy darajaga ega yetakchi olimlari va mutaxassislari jalb etiladi.

15.2. Taqrizchilar Jurnal yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy darajaga yoki tegishli sohada katta tajribaga ega mutaxassislar orasidan tanlanadi. Taqrizchini tanlashda uning bilim darajasi va maqola mavzusiga mosligi asosiy mezon hisoblanadi.

15.3. Taqrizchilar o‘z faoliyatida xolislik, maxfiylik va adolat tamoyillariga qat’iy rioya qiladi; taqrizga yuborilgan qo‘lyozmani uchinchi shaxslarga oshkor etmaydi va undan shaxsiy maqsadlarda foydalanmaydi.

15.4. Mualliflar haqidagi shaxsiy ma’lumotlar sir saqlanadi va faqat nashr maqsadlarida foydalaniladi.

XVI. NIZOMNI QABUL QILISH VA UNGA O‘ZGARTIRISHLAR KIRITISH TARTIBI

16.1. Mazkur Nizom Universitet Ilmiy kengashida muhokama qilinib, Universitet ijrochi rektori tomonidan tasdiqlanadi.

16.2. Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar Tahrir hay’atining taklifi asosida, Nizomni qabul qilish tartibida kiritiladi.

16.3. Ommaviy axborot vositalari va ilmiy nashrlar faoliyatiga oid qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilgan taqdirda Nizomga ham tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi.

XVII. YAKUNIY QOIDALAR

17.1. Mazkur Nizomda nazarda tutilmagan masalalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari hamda xalqaro ilmiy nashr standartlari asosida tartibga solinadi.

17.2. Jurnal faoliyati davomida yuzaga keladigan tashkiliy va moliyaviy masalalar Muassis va Tahririyat o‘rtasidagi kelishuv hamda ushbu Nizom talablariga muvofiq hal etiladi.

17.3. Ushbu Nizom tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

2-ilova
Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy kengashining
2026-yil “29” sentabrdagi 2-son qaroriga

«SAYQAL»
ilmiy-amaliy elektron jurnali

TAHRIR HAY’ATI TARKIBI

№	F.I.Sh.	Tahrir hay’atidagi vazifasi
1.	L.T. Raxmonov	Tahrir hay’ati raisi
2.	O‘.Sh. Abdullayev	a’zo
3.	A.A. Ravshanov	a’zo
4.	J.T. Nishonov	a’zo
5.	I.N.Cho’liyev	a’zo
6.	O.R. Ochilova	a’zo
7.	A.Q. Bahriddinov	a’zo
8.	E.R. Raxmatov	a’zo
9.	M.S. Daminova	a’zo
10.	M.N. Usarova	a’zo
11.	A.T. Qodirov	a’zo
12.	O.X. Xo‘jamurodova	a’zo
13.	G.Y. Axmedova	a’zo
14.	M.N. Xo‘jamberdiyeva	a’zo
15.	X. M.Normamatov	a’zo